



Received: April 12, 2026
Accepted: May 24, 2026
Available online: May 25, 2026

Nigina Muxtarova

Tayanch doktorant
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

Nigina Mukhtarova

PhD Student
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan
E-mail: miss.muxtarova999@gmail.com
ORCID iD: 0009-0007-9559-4751

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA CHET TILINI O'QITISHDA AUTENTIK VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

ANNOTATSIYA

Zamonaviy til ta'limida autentik materiallar tilni real kontekstda o'zlashtirish va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi. Ular orasida autentik video materiallar o'quvchilarga tabiiy nutq muhitini yaratib berishi, lingvistik birliklarni kontekstda idrok etish imkonini kengaytirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning maqsadi aynan chet tillarini o'qitishni takomillashtirishda autentik video materiallarning ahamiyati va ulardan samarali foydalanishni tashkil etishda maxsus model va metodik yondashuvlarning samarasini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Shu bilan birga, autentik video materiallarning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, OTTlarida talabalarning ingliz tili darslarida autentik video materiallardan foydalanishning mavjud holatini pedagogik tahlil qilish, autentik video materiallardan foydalanish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha metodik talablarni belgilash, ishlab chiqilgan model asosida dars ishlarni tizimini yaratish va uni o'quv jarayoniga tatbiq etish, video materiallar asosida tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish hamda ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligini talabalarning og'zaki nutq kompetensiyalari rivojlanishi asosida statistik va pedagogik jihatdan baholash mazkur tadqiqot ishimizning asosiy vazifalari sifatida belgilab olingan.

Maqolada chet tili ta'lim samaradorligida

ABSTRACT

In contemporary language education, authentic materials are widely recognized as an effective means of promoting language acquisition in real-life contexts and developing intercultural competence. Among them, authentic video materials are particularly valuable because they expose learners to natural language use and facilitate the contextual understanding of linguistic units. Accordingly, this article aims to demonstrate the significance of authentic video materials in enhancing foreign language instruction and to highlight effective approaches to their integration into the educational process.

Furthermore, the study examines the theoretical and methodological foundations of authentic video materials, analyzes their current use in English language classes at higher educational institutions, identifies existing challenges, and proposes methodological requirements for their improvement. It also develops and implements a system of lesson plans based on a specially designed instructional model and evaluates its effectiveness through pedagogical experimentation and statistical analysis of students' oral communicative competence.

To achieve these objectives, the study introduces the Video-Based Integrated Competence Development (VICD) model, which combines linguodidactic, linguopsychological, and pragmatic dimensions of authentic video materials. Based on this framework, the Authentic Video-Based Communicative Learning (AVCL) system and the Video-Mediated Communicative

erishish uchun autentik video materiallarning lingvodidaktik, lingvopsixologik va pragmatik parametrlarini integrativ yondashuv asosida birlashtirgan “Video-Based Integrated Competence Development (VICD)” nazariy-metodologik modeli va uning asosida “Authentic Video-Based Communicative Learning (AVCL)” metodik tizim va “Video-Mediated Communicative Interaction (VMCI)” metodik yondashuvi ishlab chiqilib, videokontentni o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi talabalarining tinglab tushunish, og‘zaki diskurs, pragmatik kompetensiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish samaradorligiga erishishi ilmiy-amaliy asoslangan.

Tadqiqotda oldimizga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida tajribas-inov ishlari olib borilib, respublikamizning 3 ta viloyatidan 3 ta tariba-sinov maydonlari tanlab olindi va respondentlar jalb qilindi. Tajriba boshi va oxiridagi natijalar umumlashtirilib, matematik statistik tahlil asosida umumiy o‘rish ko‘rsatkichlari aniqlandi. Xulosada autentik video materiallar chet tilini o‘qitish jarayonida lingvodidaktik jihatdan samarali vosita sifatida namoyon bo‘lishi ma‘lum bo‘ldi. Ular talabalarga real nutq namunalarini tizimli ravishda idrok etish, fonetik, leksik va pragmatik birliklarning tabiiy qo‘llanilishini kuzatish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: autentiklik, autentik video, kommunikativ kompetensiya, kompleks rivojlantirish, lingvodidaktika, lingvopsixologiya, pragmatik kompetensiya, madaniyatlararo, metod, model.

KIRISH

Jahonda autentik video materiallardan chet tilini o‘qitishda foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Global miqyosdagi ilmiy adabiyotlarda video materiallarning til o‘rganuvchilarda real nutq vaziyatlarini idrok etish, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Xususan, dunyo olimlari autentiklik fenomenining o‘zi til o‘rganishda tashqi dunyo bilan bog‘lovchi vosita ekanini, video esa bu jarayonda multimodal tajriba yaratib, o‘quvchi ongida tilning real qo‘llanilishiga oid yaxlit tasavvur hosil qilishini ko‘rsatib o‘tganlar. Zamonaviy tadqiqotlarda video materiallar yordamida kontekstual ma’no, noverbal ishoralar, intonatsiya, muloqotning pragmatik qoidalari va madaniy nuanslarni tabiiy ravishda qabul qilish mexanizmlari ilmiy asosda izohlangan. Shu tariqa jahon tajribasi autentik video materiallar chet tillarini o‘qitishda nafaqat qo‘shimcha resurs, balki kommunikativ kompetensiyani

Interaction (VMCI) approach were developed. The findings confirm that the integration of authentic video content effectively enhances learners’ listening comprehension, oral discourse skills, pragmatic competence, and intercultural communicative competence.

Moreover, experimental research was conducted at three educational institutions located in different regions of the country. Comparative analysis of pre- and post-experimental results, supported by mathematical-statistical procedures, revealed positive growth in students’ language performance. Consequently, the study concludes that authentic video materials represent a highly effective linguodidactic resource, enabling learners to engage with authentic speech samples and observe the natural use of phonetic, lexical, and pragmatic features in real communicative contexts.

Key words: authenticity, authentic video, communicative competence, integrated development, linguodidactics, linguopsychology, pragmatic competence, intercultural, method, model.

rivojlantirishning asosiy metodik vositalaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda autentik video materiallardan foydalanishga doir amaliy izlanishlar va tajriba-sinov ishlari so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Oliy ta'lim tashkilotlarida chet tillarini o'qitish jarayonida real kommunikativ vaziyatlarni yaratishga qaratilgan mashg'ulotlar, interaktiv topshiriqlar, multimodal materiallar va video asosidagi kompetensiya rivojlantirish loyihalari keng qo'llanila boshladi. Talabalar bilan o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlarda autentik videolar asosida rol o'ynash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozara, kontekstual tinglab tushunish, madaniy farqlarni solishtirish kabi faol metodlar qo'llanilmoqda. Xususan, "barqaror rivojlanish va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasining asosi sifatida sifatli ta'lim tizimini yaratish, yoshlarimizning bilim va mahoratini oshirish zarurati" [Mirziyoyev, 2024: 34] kabi vazifalar belgilanganligi bois respublikamizning turli oliygohlarida autentik video asosida og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha kichik ilmiy-amaliy tadqiqotlar, talabalar bilan eksperimental darslar, videokorpuslar yaratish va multimodal materiallar asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Autentik matnlar yozma yoki og'zaki ko'rinishda bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda tilning tabiiy qo'llanishini aks ettiradi. Ular odatda ona tilida so'zlashuvchilar uchun mo'ljallangan kontekstlarda yaratiladi va maxsus o'quv maqsadlari uchun ishlab chiqilmaydi [Shoyeva, 2024: 72]. Shu sababli bunday materiallarda leksik, grammatik va sintaktik birliklar asosan ona tilida so'zlashuvchi auditoriyaning ehtiyoj va xususiyatlariga mos holda tanlanadi hamda ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etiladi. Shu bilan birga, ingliz tilini o'qitishda autentik materiallardan foydalanishning ijobiy jihatlari ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. An'anaviy darsliklar va o'quv dasturlari muayyan didaktik vazifalarni bajarishda muhim bo'lsa-da, ular ko'pincha real hayotiy kontekstni yetarli darajada aks ettirmaydi [Spivakova, 2024: 35]. Autentik materiallar esa til o'rganishga yanada amaliy va qiziqarli yondashuvni ta'minlaydi hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autentik video materiallardan foydalanish boshqa autentik materiallarga qaraganda ikkinchi chet tilini o'rganishni targ'ib qilishda samaraliroqdir. Misol uchun, K.Herron o'quvchilar autentik video materiallarga duch kelganlarida ma'lumotni yaxshiroq tushunishlari va saqlashlarini aniqladi, chunki bunday video materiallar kontentni yanada mazmunli va qiziqarli qiladi [Herron, 1992: 419]. T.Sekules esa ushbu da'voni qo'llab-quvvatlab, til o'rgatishda autentik videolardan foydalanish tinglab tushunishni sezilarli darajada yaxshilashini ta'kidlaydi [Secules et al., 1995: 775]. Tilshunoslarning fikricha, autentik matnlar u yaratilgan til hamjamiyatida muayyan ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqiladi. Bunday maqsadlar qatoriga axborot yetkazish, ma'lumot almashish, madaniy dam olish va boshqa kommunikativ ehtiyojlar kiradi. Shu jihatdan, autentik video materiallardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarni real ijtimoiy-muloqot muhitiga tayyorlash hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir.

J.Richards imkon qadar real muloqotni aks ettirish uchun ingliz tili darslarida

muloqotni stimulyatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi [Richards, 2006: 67]. Shu sababli autentik video materiallardan keng foydalanishni tavsiya etiladi. Darhaqiqat, bu kabi materiallardan foydalanish o'qituvchilar uchun asosiy ikki jihatdan foydali bo'lishi mumkin: birinchidan, o'quvchilarning mashg'ulotlar bilan shug'ullanayotganini hamda jo'shqin va mustaqil ishlashini kuzatish orqali, ikkinchidan, o'z til bilimlarini oshirish va madaniy ongini chuqurlashtirish jihatidan tushuniladi.

Til o'qitish jarayonida autentik materiallardan foydalanishning nazariy asoslari kommunikativ til o'qitish (CLT) yondashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur yondashuv til o'rgatishda asosiy e'tiborni grammatik qoidalar va lug'at birliklarini yodlashdan ko'ra mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan muloqotga qaratadi. Shu jihatdan, real kommunikativ vaziyatlarni aks ettiruvchi autentik video materiallar kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi [Zamkovaya, 2023: 89].

Ushbu video materiallar tilning tabiiy qo'llanilishini aks ettirar ekan, nutqiy vaziyat, madaniy kontekst va kommunikativ maqsadni bir butun holda taqdim etishi bilan ham alohida ajralib turadi. Bunday materiallarda jonli nutq, tabiiy talaffuz, mimika va imo-ishoralar uyg'unlashgan bo'ladi [Taylor et al., 2024]. Shuningdek, ular o'rganilayotgan tilni real kommunikatsiyaga yaqinlashtirib, o'quv motivatsiyasini ham oshiradi.

A.McNeil til o'qitish jarayonida autentik video materiallardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarga real hayotda qo'llaniladigan tilni amaliy tarzda namoyish etish ekanligini ta'kidlaydi [McNeil, 1994: 58]. Bunga qo'shimcha ravishda, autentik materiallar tilni o'rganishda real hayotiy vaziyatlarni modellashtiruvchi faoliyatlarni tashkil etish imkonini beradi.

W.Guariento esa o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olish hamda ularni mazmunli autentik vazifalarga jalb etish muhimligini alohida qayd etadi [Guariento, 2001: 374]. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat autentik video materiallar bilan tanishishini, balki ular uchun ahamiyatli bo'lgan real kontekstlarda tilni faol qo'llashini ta'minlaydi.

Yaqinda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu video materiallar, G.Oura ta'kidlaganidek, tilini o'rganish uchun juda samarali vositadir [Oura, 2003: 26]. Autentik videolar mazmunli kontekstda tilni real tanishtirib bera oladi va o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish potensialiga ega hisoblanib, shu bilan birga ularning motivatsiyasini ham oshiradi [Kamil, 2000: 771]. Bu omillar ushbu video materiallardan foydalanishni boshqa autentik materiallardan afzalroq qiladi.

Autentik video materiallar chet tillarini o'qitishda muhim pedagogik resurs sifatida e'tirof etilib, o'quvchilarga immersiv, kontekstual va real til muhitiga yaqin o'rganish tajribasini taqdim etadi [Atadjanova, 2021: 53]. Ushbu videolarning lingvistik va madaniy jihatdan boy mazmuni o'quvchilarning til kompetensiyasini, madaniy xabardorligini hamda kommunikativ malakalarini rivojlantirishga kompleks tarzda xizmat qiladi. Shu bilan birga, autentik video materiallardan samarali foydalanish o'qituvchidan materiallarni o'quvchilarning til darajasi, o'quv maqsadlari va ta'lim kontekstiga mos ravishda puxta tanlash, zarur hollarda moslashtirish va metodik

jihatdan boyitishni talab etadi.

Ushbu video materiallar real tilda yaratilgan bo‘lib, tilning tabiiy qo‘llanilishini aks ettirar ekan, ular nutqiy vaziyat, madaniy kontekst va kommunikativ maqsadni bir butun holda taqdim etishi bilan ham alohida ajralib turadi. Bunday materiallarda jonli nutq, tabiiy talaffuz, mimika va imo-ishoralar uyg‘unlashgan bo‘ladi [Porter, 1981: 37]. Shuningdek, ular o‘rganilayotgan tilni real kommunikatsiyaga yaqinlashtirib, o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Quyidagi jadvalda autentik video materiallarning o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Autentik video materiallarning o‘ziga xos xususiyatlari jadvali

Xilma-xillik	Autentik video materiallar turli xil janrlar, mavzular, urg‘u va lingvistik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarning turli xil qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradi.
Tildan foydalanishning autentikligi	Bunday videolarda tabiiy tildan foydalanish, jumladan, so‘zlashuv iboralari, aksent, intonatsiya naqshlari va madaniy murojaatlar mavjud bo‘lib, kundalik muloqotning murakkabligini aks ettiradi.
Vizual yordam	Autentik videolar tushunish va talqin qilishga yordam beradigan imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana tili va kontekstli tasvirlar kabi vizual belgilar bilan birga keladi.
Interaktiv elementlar	Ba’zi video materiallar o‘quvchilarning tushunishi va faolligini oshirish uchun subtitrlar, transkriptlar, tushunish savollari va interfaol mashqlar kabi interaktiv xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalarning, xususan, internet va multimedia platformalarining keng tarqalishi natijasida audiovizual resurslarga kirish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi. Bu esa o‘z navbatida chet tillarini o‘qitish jarayoniga autentik video materiallarni integratsiya qilishni yanada qulay va samarali qildi. Mazkur video materiallar eshitish, vizual va ba’zan matnli elementlarni birlashtirgan holda multimodal o‘quv tajribasini shakllantiradi [Ablakulova, 2024: 54]. Bunday yondashuv til o‘rganishni faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki ko‘p hissiy va interaktiv faoliyat sifatida talqin etuvchi zamonaviy pedagogik qarashlarga mos keladi.

Yuqorida o‘rganilgan nazariy bilimlar va bir qator olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra ushbu video materiallar kearkli darajada chuqur tahlil qilingan va o‘rganilgan ammo mavjud tadqiqotlarda autentik video materiallarning oliy ta’limda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishdagi metodologik asoslari, ularni dars bosqichlariga tizimli integratsiya qilish hamda interaktiv topshiriqlar asosida qo‘llash mexanizmlari yetarlicha kompleks yoritilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqot aynan shu yo‘nalishda integrativ metodik yondashuvni ishlab chiqishi bilan boshqa ilmiy ishlardan farqlanadi. Bu holat ushbu tadqiqotimizning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Shu boisdan tadqiqotimizning asosiy maqsadi sifatida oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini o‘qitishda autentik video materiallardan foydalanishning metodik modelini ishlab chiqish va uni tajriba-sinov asosida tekshirish belgilandi. Mazkur masadimizga erishish uchun esa nazariy, amaliy hamda eksperimental ketma-ketlikda vazifalar

belgilab olindi. Ya'ni, autentiklik tushunchasi hamda autentik video materiallarning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, ularning chet tilini o'qitishdagi didaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash, OTTlarning ingliz tili (listening va speaking) darslarida autentik video materiallardan foydalanishning mavjud holatini pedagogik tahlil qilish, autentik video materiallardan foydalanish jarayonidagi mavjud muammolar va ehtiyojlarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha metodik talablarni belgilash, autentik video materiallar asosida "*Video-Based Integrated Competence Development (VICD)*" nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish hamda uning asosida "*Authentic Video-Based Communicative Learning (AVCL)*" va "*Video-Mediated Communicative Interaction (VMCI)*" metodik yondashuvlarini shakllantirish, ishlab chiqilgan model asosida dars ishlanmalari tizimini yaratish va uni o'quv jarayoniga tatbiq etish, autentik video materiallar asosida tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligini talabalarining og'zaki nutq kompetensiyalari rivojlanishi asosida statistik va pedagogik jihatdan baholash kabi vazifalar belgilab olindi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot maqsadi hamda vazifalariga erishishda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan usullar majmui: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, kuzatish), prognoztik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta tiklash, natijalarni grafik tasvirlash) singari nazariy hamda empirik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot jarayonida tajriba-sinov ishlarini olib borishdan maqsad oliy ta'lim tashkilotlarida chet tili o'qitishda autentik video materiallardan foydalanishni takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va metodik ishlab chiqilmalarning samaradorligini sinovdan o'tkazish hisoblanadi. Tajriba maydonlari sifatida Samarqand davlat chet tillar instituti, O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti hamda Namangan davlat chet tillar instituti kabi oliy ta'lim tashkilotlari belgilab olindi. Tajriba-sinov ishlari 4 bosqichda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining bosqichlarini belgilashda uzviylik, ilmiylik, izchillik, tizimlilik, mantiqiylik hamda o'zaro aloqadorlik tamoyillariga qat'iy amal qilindi. Har bir bosqich uchun aniq maqsad va vazifalar belgilab olinib, ularning izchil va to'liq bajarilishi ta'minlandi. Mazkur yondashuv tajriba jarayonining ilmiy asoslanganligini ta'minlab, olingan natijalarning ishonchligi va obyektivligini oshirishga xizmat qildi.

OTTlarning ta'lim jarayonlari va fan dasturlari tahlil qilinib, natijalar shuni ko'rsatdiki, autentik video materiallardan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada integratsiya qilinmagan. Xususan, o'quv dasturlarida autentik video materiallarga asoslangan topshiriqlar tizimining yetishmasligi, ularning metodik jihatdan bosqichma-bosqich qo'llanishi (pre-, while-, post-watching) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, baholash mezonlarida pragmatik va kommunikativ kompetensiyalarni aniqlash indikatorlarining aniq belgilanmaganligi kuzatildi.

Shuningdek, video materiallar tanlashda til darajasiga moslik, madaniy kontekstni hisobga olish hamda texnik va didaktik qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli emasligi ta'lim samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot doirasida professor-o'qituvchilar o'rtasida autentik video materiallar mohiyati va ulardan foydalanish darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma o'tkazilib, uning natijalari mavjud kamchiliklarni yanada aniqroq asoslash imkonini berdi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tushunchalar, amaliy asoslar hamda qator kamchiliklarga asoslanib tadqiqot doirasida autentik video materiallardan foydalanishni tizimli tashkil etishga qaratilgan integrativ metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model VICD (Video-Based Integrated Competence Development), AVCL (Authentic Video-Based Communicative Learning) va VMCI (Video-Mediated Communicative Interaction) yondashuvlari sintezi asosida shakllantirilib, kognitiv, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgandir. Modelni amaliyotga joriy etish video materiallarni tanlash (selection), didaktik moslashtirish (adaptation) va o'quv jarayoniga integratsiya qilish (instructional integration) bosqichlarini qamrab oladi hamda "pre-watching", "while-watching" va "post-watching" asosidagi videodidaktik yondashuv orqali talabalarning tinglab tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarini izchil rivojlantirishni ta'minlaydi. Mazkur modelning nazariy asoslari va ularning amaliy-didaktik qo'llanilishi tizimlashtirilgan holda jadvalda keltirilgan bo'lib, nazariy bilimlarni amaliy o'quv faoliyatiga samarali tatbiq etish mexanizmi asoslab berilgan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

VICD modelining nazariy asoslari jadvali

№	Nazariy yondashuv	Key words (kalit so'zlar)	VICD modelida qo'llanish holati
1.	Kognitiv yuk nazariyasi (Cognitive Load Theory)	working memory, cognitive overload, input simplification, video length, visual load	qisqa video fragmentlar, asosiy g'oyani aniqlash, kognitiv yukni kamaytirish
2.	Konstruktivistik ta'lim nazariyasi (Constructivism)	knowledge construction, active learning, problem-solving, learner-centered	muammoli vaziyatli video, mustaqil xulosa chiqarish, muhokamali mashqlar
3.	Kommunikativ til o'qitish yondashuvi (Communicative Language Teaching (CLT))	meaningful communication, fluency, role-play, real interaction	real kommunikativ vaziyatlar, role-play vaziyatlar, gapirish mashqlari
4.	Kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi (Competency-Based Approach)	linguistic competence, pragmatic competence, sociolinguistic competence, intercultural competence	madaniyatlararo taqqoslash, kommunikativ kompetensiya rivoji
5.	Multimodal o'qitish nazariyasi (Multimodal Learning)	audio-visual input, dual channel, cognitive integration, visual support	video tahlili, "listening + watching + script analysis" ning uyg'unligi

6.	Tushunarli input nazariyasi (Input Hypothesis)	comprehensible input, i+1, contextual learning, exposure	subtitrlri videolar, tushunarli autentik intervyular
7.	Interaksiya gipotezasi (Interaction Hypothesis)	negotiation of meaning, interaction, clarification, discussion	yo'naltirilgan muhokama, videoga asoslangan bahs-munozara va ma'no almashinuvi
8.	Nutq ishlab chiqarish gipotezasi (Output Hypothesis)	language production, speaking practice, output hypothesis, fluency development	qisqacha og'zaki bayon qilish, qayta hikoya qilish va og'zaki taqdimotlar
9.	Pragmatik kompetensiya (Pragmatic Competence)	speech acts, intonation, appropriacy, context-based language use	intervyu asosida muloyim so'rov, kechirim so'rash va funksional nutq

Mazkur jadvalda autentik video materiallarga asoslangan VICD modelining nazariy asoslari hamda ularning amaliy-didaktik qo'llanilishi tizimlashtirilgan. Unda kognitiv, konstruktivistik, kommunikativ va pragmatik yondashuvlar integratsiyasi asosida videokontentdan foydalanish orqali talabalarning til kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish mexanizmi yoritilgan. Autentik video materiallarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish ularni to'g'ri tanlash va didaktik jihatdan asoslangan mezonlar asosida saralashni talab etadi [Gülseren et al., 2024: 1179]. Chunki har qanday video material ham chet tilini o'qitish maqsadlariga mos kelavermaydi; ularning lingvistik murakkabligi, mavzuviiy dolzarbligi, davomiyligi hamda o'quvchilarning til darajasiga mosligi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [Zhang, 2022: 786]. Autentik video materiallarni tanlash jarayoni faqat texnik emas, balki metodik va pedagogik asosga ega bo'lgan tizimli yondashuv muhim hisoblanadi. Shu sababli bu kabi video materiallarni tanlash jarayoni VICD modelining dastlabki va eng muhim (selection) bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Adabiyotlardan olingan tahlillar natijasida, video materiallarni tanlashda quyida keltiriladigan muhim omillarga alohida e'tibor qaratilishi lozim deb bilamiz (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Autentik video materiallarni tanlash bosqichining VICD modeli doirasidagi mezonlar bo'yicha moslik jadvali

№	Mezoni	VICDdagi vazifasi	Amaliy qo'llanish
1.	CEFR moslik	Til darajasini moslash	A2–C1 darajadagi videolarni tanlash
2.	Kognitiv yuk	Axborot murakkabligini boshqarish	3–6 daqiqalik video fragmentlar
3.	Kommunikativ salohiyat	Muloqotni rag'batlantirish	munozara va debat tashkil etish
4.	Pragmatik boylik	Nutqiy aktlarni rivojlantirish	iltimos, kechirim, taklif mashqlari
5.	Multimodal input	Ko'p kanalli idrokni kuchaytirish	audio + video + subtitrlar
6.	Madaniy autentiklik	Real kontekstni ta'minlash	BBC, TED Talks, intervyular

7.	O'quv dasturiga moslik	Syllabus bilan uyg'unlik	mavzuga mos video tanlash
----	------------------------	--------------------------	---------------------------

Yuqoridagi jadvalda autentik video materiallarni tanlash bosqichida VICD modeli doirasida qo'llaniladigan asosiy mezonlar va ularning didaktik vazifalari izchil tizimlashtirilgan. Mazkur mezonlar videokontentni til darajasi (CEFR), kognitiv yuklama, kommunikativ va pragmatik salohiyat, madaniy autentiklik hamda o'quv dasturiga moslik asosida tanlashni ta'minlaydi [Shukurova, 2024: 113]. Natijada video materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshiriladi, talabalarining bilimlarni tizimli o'zlashtirishi va mustaqil ta'lim faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

Dars jarayonida tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda autentik video materiallarning turlarini aniqlash muhim metodik ahamiyatga ega. Bunday materiallar o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lib, ularning o'quv jarayoniga faol jalb etilishi hamda darslardan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi [Kalachnikova, 2022: 432]. Chet tilini o'qitishda TED Talk videolari, intervyular, yangiliklar (BBC, CNN), hujjatli filmlar, filmlar va seriallar, YouTube vloglar, reklama roliklari hamda podkast videolari eng maqbul autentik materiallar sifatida didaktik jihatdan tahlil qilindi. Ularning lingvodidaktik xususiyatlari hamda o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlari tasniflanib, har bir turining ta'limiy ahamiyati alohida ko'rib chiqildi. Ushbu tasnif autentik video materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish orqali talabalarining tinglab tushunish, nutq ishlab chiqarish hamda kommunikativ kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tasnifdan kelib chiqib, aynan VICD modeli doirasida TED Talk videolari ustuvor didaktik vosita sifatida tanlab olindi. Bunga sabab, ushbu turdagi videolar akademik nutqning aniq strukturasiga ega bo'lishi, g'oyaning izchil va mantiqiy bayon etilishi hamda mazmunan motivatsion xarakter kasb etishidir. Shuningdek, TED Talk videolari talabalarga autentik, lekin nisbatan tushunarli inputni taqdim etib, ularning tinglab tushunish, asosiy g'oyani ajratish va og'zaki nutqni rivojlantirish ko'nikmalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Mazkur modelda video materiallarni saralash (selection) bosqichi yakunlangach, keyingi moslashtirish (adaptation) bosqichiga o'tiladi. Ushbu bosqichda tanlangan video materiallar jahon pedagogik tajribasi tahliliga asoslangan hamda VICD modelining tarkibiy qismi hisoblangan AVCL metodik tizimi orqali milliy ta'lim muhitiga moslashtiriladi. Mazkur tizim kommunikativlik, kontekstual o'rganish, madaniy moslik va kognitiv yuklamani muvozanatlashtirish tamoyillariga tayanib, video materiallarni o'quv jarayoniga maqsadga muvofiq integratsiya qilishni ta'minlaydi [Makarenko et al., 2023: 75].

Video materiallar asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati bosqichli videodidaktik yondashuv asosida "pre-watching", "while-watching" va "post-watching" bosqichlarida amalga oshiriladi. "Pre-watching" bosqichida talabalar mavzuga tayyorlanadi [Temirova va Bakiyeva, 2020: 329]; "while-watching" jarayonida asosiy mazmunni tushunish va tahlil qilishga yo'naltiriladi [Gjinali et al., 2023:

160]; “post-watching” bosqichida esa muhokama, refleksiya va ogʻzaki nutq faoliyati rivojlantiriladi [Bajrami et al., 2016: 502]. Ushbu bosqichlar talabalarning kommunikativ va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, model doirasida VMCI yondashuvi qoʻllanilib, video materiallar asosida muammoli topshiriqlar, muhokama va hamkorlikdagi muloqot faoliyatlari tashkil etiladi. Natijada talabalarning pragmatik kompetensiyasi, kommunikativ strategiyalari va madaniyatlararo muloqot koʻnikmalari rivojlanadi [Kabooha et al., 2018: 72]. Shu asosda video materiallarni bosqichma-bosqich adaptatsiya qilish talabalarning real kommunikativ muhitga yaqinlashgan holda tilni samarali oʻzlashtirishini taʼminlaydi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

VICD modeli asosida darsni tashkillashtirishning bosqichli jadvali

Bosqich	Metodik yondashuv	Maqsad	Faoliyat turi	Rivojlantiriladigan kompetensiya
Selection	VICD + VMCI	Eng mos TED Talks videoni tanlash	mavzu, daraja, kognitiv yuk tahlili	lingvistik moslik, tanlash strategiyasi
Adaptation	VICD	Videoni oʻquv jarayoniga moslashtirish	segmentatsiya, subtitrlar, soddalashtirish	tushunish (comprehension)
Pre-watching	AVCL	Kontekst yaratish va tayyorlash	savollar, vocabulary preview	aktivlashtirilgan input
While-watching	AVCL + VMCI	Asosiy mazmunning tushunish	gist/detail listening, note-taking	listening comprehension
Post-watching	VMCI	Nutq ishlab chiqarish	discussion, debate, summary speaking	speaking + interaction
Integration Output	VICD	Kompleks kompetensiya	role-play, reflection, presentation	pragmatic + intercultural competence

Keltirilgan jadvalda VICD modeli doirasida autentik video materiallar bilan ishlashning bosqichlari, ularga mos metodik yondashuvlar hamda oʻquv faoliyatining maqsad va natijalari tizimli ravishda aks ettirilgan. Ushbu bosqichlar orqali video materiallar asosida talabalarning tinglab tushunish, nutq ishlab chiqarish hamda pragmatik va madaniyatlararo kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmi yoritilgan.

Ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar hamda VICD modeli asosida video materiallarni oʻquv jarayoniga integratsiya qilish (instructional integration) tamoyili asosida tizimli joriy etish amalga oshirildi. Ushbu jarayonda autentik video materiallar taʼlim mazmuni, metodik yondashuvlar va kommunikativ topshiriqlar bilan uygʻunlashtirilib, ularning yagona didaktik tizim sifatida ishlashi taʼminlandi. Natijada dars ishlanmalari va mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur darslar talabalarning lingvistik, pragmatik va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, har bir dars “pre-watching”, “while-watching” va “post-watching” bosqichlari asosida aniq metodik izchillikda tashkil etildi.

Autentik video materiallarga asoslangan darslarni samarali tashkil etishda

interaktiv va reflektiv faoliyat turlarining o'zini alohida ahamiyat kasb etadi [Wang, 2015: 46]. Ayniqsa, guruhli muhokama va yozma refleksiya kabi topshiriqlar talabalarning kognitiv faolligini oshirib, ularni faol o'quv subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, autentik video materiallarga asoslangan darslar qator muhim ta'limiy natijalarga erishishni ta'minlaydi: autentiklik orqali real hayotga yaqin lingvistik muhit yaratiladi va bu o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi [Berk, 2012: 21]; madaniyatlararo kompetensiya rivojlanib, turli ijtimoiy hamda madaniy kontekstlarga nisbatan sezgirlik shakllanadi; tanqidiy tafakkur va qayta ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantiradi [Swaffar et al., 2013: 87]; shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv asosida tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari yagona didaktik tizim doirasida izchil rivojlantiriladi [Stempleski et al., 2014: 56].

Mazkur modelimizda baholash tizimi jarayoniy (formativ) va yakuniy (summativ) yondashuvlarga asoslanib, talabalarning darsdagi faolligi, listening comprehension topshiriqlari, vocabulary va comprehension mashqlari hamda muhokama, debate, role-play va reflection writing kabi kommunikativ faoliyatlardagi ishtiroki orqali kompleks tarzda amalga oshiriladi [Almurashi, 2016: 32]. Jarayoniy baholash VICD modeli doirasidagi interaktiv faoliyatlar orqali talabaning kommunikativ faolligi va til qo'llash darajasini uzluksiz monitoring qilishga xizmat qiladi. Yakuniy baholash esa autentik video asosidagi summary speaking, reflective writing va problem-solving topshiriqlar orqali talabalarning integratsiyalashgan kommunikativ kompetensiyasini baholashga yo'naltiriladi.

Shu asosda, CEFR talablariga mos holda ishlab chiqilgan baholash mezonlari jadvali talabalarning nutqiy kompetensiyasini obyektiv va tizimli baholashga xizmat qiladi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Autentik video materiallar asosida nutqiy kompetensiyani baholash mezonlari jadvali

Baholash mezonlari	Yuqori daraja (5 ball)	O'rta daraja (4 ball)	Qoniqarli daraja (3 ball)	Past daraja (2 ball)
Tinglab tushunish darajasi	Video mazmunidagi asosiy g'oya va muhim detاللarning barchasini to'liq va aniq tushunadi, savollarga mustaqil va to'g'ri javob beradi	Asosiy g'oyani tushunadi, lekin ayrim detاللarni qisman tushunadi yoki noaniq ifodalaydi	Umumiy mazmunni qisman anglaydi, savollarga to'liq bo'lmagan javoblar beradi	Video mazmunini tushunishda jiddiy qiyinchilikka duch keladi, javoblar noto'g'ri yoki mavzuga mos emas
Leksik birliklardan foydalanish	Yangi so'z va iboralar-ni nutqda to'g'ri, o'rinli va faol qo'llaydi	Yangi leksik birliklarni qisman qo'llaydi, ayrim xatolar mavjud	Leksik birliklardan cheklangan holda foydalana-di, takrorlar ko'p	Yangi so'zlardan deyarli foydalanmaydi yoki noto'g'ri qo'llaydi


Og‘zaki nutq ravonligi va aniqligi	Nutqi ravon, talaffuzi aniq, grammatik xatolar deyarli yo‘q, fikr izchil bayon qilinadi	Nutq asosan ravon, lekin talaffuz va grammatikada ayrim xatolar mavjud	Nutq uzilib-uzilib ifodalanadi, grammatik va talaffuz xatolari sezilarli	Nutq ravon emas, xatolar ko‘p, fikrni tushunish qiyin
Kreativ yondashuv	Video asosida mustaqil fikr bildiradi, tahlil qiladi va baholovchi xulosalar chiqaradi	Shaxsiy fikr bildiradi, lekin tahlil yuzaki	Fikrlar asosan qayta hikoyalash bilan cheklanadi	Mustaqil fikr va tahlil mavjud emas
Muloqot kompetensiyasi	Guruh muhokamalarida faol ishtirok etadi, savollarga aniq va o‘rinli javob beradi, fikr almashadi	Muhokamada qatnashadi, lekin faolligi o‘rtacha	Muloqotda kam ishtirok etadi, javoblari qisqa va noaniq	Muloqotda deyarli ishtirok etmaydi

Mezonga asoslangan baholash til ko‘nikmalarini faqat natija emas, jarayon sifatida baholashga, tinglab tushunish, leksik va og‘zaki nutqni integrativ kompetensiya sifatida ko‘rishga, o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qiladi [Oddone, 2011: 105]. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan “Video-based Integrated Competence Development” (VICD) modeli autentik video materiallarni chet tilini o‘qitishda tizimli va bosqichma-bosqich qo‘llashga xizmat qiluvchi integrativ metodik yondashuv sifatida shakllantirildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

“Og‘zaki nutq amaliyoti” (Listening and Speaking) fanini o‘qitayotgan professor-o‘qituvchilar o‘rtasida dars jarayonida autentik video materiallardan foydalanish usullari, ularning ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni hamda mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash maqsadida anketa-so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan oliy ta‘lim muassasalaridan jami 53 nafar professor-o‘qituvchi ishtirok etdi.

So‘rovnoma natijalari tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash, o‘qituvchilarning amaliy tajribasi va qarashlarini tahlil qilish hamda darslarda autentik video materiallardan samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi (1-rasmga qarang):

1-rasm. Autentik video materiallar bo'yicha so'rov natijalari

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning aksariyati autentik video materiallardan muntazam ravishda foydalanadi va ularni chet tili ta'lim jarayonining muhim didaktik komponenti sifatida yuqori baholaydi. Bu holat zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarda autentik materiallarning o'zni mustahkamlanib borayotganini, shuningdek, ularning metodik va pedagogik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

So'rovnoma natijalari asosida autentik video materiallardan foydalanishning asosiy didaktik maqsadlari aniqlashtirildi. Respondentlarning katta qismi ushbu materiallar, birinchi navbatda, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ta'kidladilar. Bu esa autentik video materiallarning real nutq namunalarini, tabiiy talaffuz, intonatsiya va kommunikativ vaziyatlarni autentik kontekstda taqdim etishdagi ustun imkoniyatlari bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy kompetensiyani kengaytirish, madaniy kompetensiyani shakllantirish hamda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish ham muhim didaktik maqsadlar sifatida qayd etildi.

Shu bilan birga, so'rovnoma natijalari ayrim tizimli muammo va cheklavlarni ham aniqladi. Jumladan, vaqt yetishmasligi, texnik infratuzilmaning yetarli darajada emasligi, autentik materiallarning o'quvchilar til darajasiga moslashtirilmasligi hamda ularni didaktik jihatdan qayta ishlash jarayonining murakkabligi asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatildi. Ushbu omillar autentik video materiallardan samarali foydalanish jarayonida metodik tayyorgarlik va tashkiliy shart-sharoitlarning yetarli darajada takomillashtirilmaganini anglatadi.

Bundan tashqari, ayrim respondentlar autentik video materiallarning noto'g'ri tanlanishi yoki yetarli darajada pedagogik moslashtirilmasligi o'quvchilarda tushunish qiyinchiliklarini yuzaga keltirishi, natijada esa ularning o'quv motivatsiyasiga

salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladilar. Bu esa autentik materiallardan foydalanish jarayonida faqat ularning mavjudligi emas, balki ularni maqsadli tanlash, didaktik adaptatsiya qilish hamda bosqichma-bosqich pedagogik integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tanlab olingan tajriba hamda nazorat guruhi talabalarining birlamchi ingliz tilida ijtimoiy va kasbiy muloqot, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarining darajasini aniqlash bo'yicha topshiriqlar berildi va ushbu topshiriqlar asosida talabalarining ingliz tilida tinglab tushunish va gapirish bo'yicha malaka va ko'nikmalarining dastlabki holati aniqlandi. Tahlillar natijasi quyidagicha (5-jadvalga qarang):

5-jadval

OTT talabalarining og'zaki nutq ko'nikmalari bo'yicha dastlabki test natijalari jadvali

OTT	Tajriba guruhlar				Nazorat guruhlar			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	5	4	3	2	5	4	3	2
SamDChTI	14	25	19	14	13	23	20	18
O'zDJTU	15	22	22	15	14	26	15	17
NamDChTI	12	25	21	16	12	27	20	15
Jami: TG-220 NG-220	41 18,6 %	72 32,7 %	62 28,1 %	45 20,4 %	39 17,7 %	76 34,5 %	55 25 %	50 22,7 %

Birlamchi tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik tajriba-sinov ishlari amalga oshirilayotgan OTT talabalarining ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalari — ya'ni tinglab tushunish (Listening) va gapirish (Speaking) kompetensiyalari darajalari o'rtasida sezilarli farq mavjud emasligi aniqlandi. O'rtacha ko'rsatkichlar tahlili ushbu ko'nikmalar bo'yicha talabalar yuqori darajaga (tajriba guruhi 51,3% nazorat guruhi 52,2%) ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalar audio matnlarda uchraydigan murakkab leksik birliklarni tushunish va ularni tarjima qilish ko'nikmalariga ham ega ekanliklari kuzatildi.

Biroq, olingan natijalar talabalar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarining amaliy kasbiy kommunikativ vaziyatlarda to'liq va samarali qo'llanilishida bir qator qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, og'zaki nutq jarayonida spontan fikr bildirish, kommunikativ vaziyatga mos javob qaytarish hamda real muloqot sharoitida til vositalaridan erkin foydalanish kabi jihatlarida muammolar aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari doirasida autentik videomateriallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi turli o'quv topshiriqlari kesimida tahlil qilindi. Ushbu bosqichda reflektiv yozma topshiriqlar, guruh va juftlikdagi munozaralar, "while-watching" va "pre-watching" mashqlari hamda leksik yo'naltirilgan topshiriqlarning talabalarining ingliz tili og'zaki kompetensiyasiga ta'siri o'rganildi. Natijalar har bir mashg'ulot turi bo'yicha o'zlashtirish darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi (6,7,8-jadvallar va 2,3-rasmlarga qarang):


6-jadval

Reflektiv yozma topshiriqlar tahlili (tajriba guruhlari) jadvali

OTT nomi	Pre-test (%)	Post-test (%)	O'sish (%)
SamDChTI	41%	73%	+32%
O'zDJTU	44%	76%	+32%
NamDChTI	40%	71%	+31%

Tajriba guruhlarida reflektiv yozma topshiriqlarning tizimli qo'llanilishi natijasida talabalar videomateriallarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlil qiluvchi subyekt sifatida ishtirok eta boshladilar. Bu esa ularning diqqatni jamlash, asosiy va ikkinchi darajali axborotni farqlash hamda muhim detallarni eslab qolish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

2-rasm. Guruh va juftlikdagi mashqlar samaradorligining ko'rsatkichlari



Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, guruh va juftlikdagi munozaralar talabalarining og'zaki nutqini erkinlashtirib, fikrlarni asoslash va qarama-qarshi nuqtai nazarni hurmat qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirdi. Ayniqsa, urbanizatsiya va sog'lom turmush tarzi kabi dolzarb ijtimoiy mavzular bo'yicha bahs-munozaralar o'tkazish orqali talabalarining kommunikativ kompetensiyasi real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirildi.


7-jadval

While-watching bosqichida tajriba guruhining natijalar jadvali

№	OTT nomi	Boshlang'ich natija (%)	Yakuniy natija (%)	O'sish (%)
1.	SamDChTI	52%	80%	+28%
2.	O'zDJTU	55%	82%	+27%
3.	NamDChTI	50%	78%	+28%

“While-watching” bosqichida asosiy g'oyani (gist/main idea) aniqlash video yoki audiomaterialni samarali o'zlashtirishning muhim metodik bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar bu faoliyatning quyidagi afzalliklarini ko'rsatadi: u tinglovchini birinchi eshitishdayoq umumiy mazmunni tez anglashga yo'naltiradi, bu esa real kommunikativ vaziyatlarda (suhbat, yangiliklar, filmlar) zarur bo'lgan tabiiy ko'nikma hisoblanadi.

3-rasm. Pre-watching mashqlari natijalari



Pre-watching bosqichi autentik videomateriallar bilan ishlashda eng muhim metodik bosqichlardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar ushbu bosqich to'g'ri tashkil etilganda o'quvchilarning tushunish darajasi sezilarli darajada oshishini, stress darajasi kamayishini hamda o'quv motivatsiyasi ortishini ko'rsatadi.

8-jadval

Leksik mashqlar orqali tajriba guruhining o'zlashtirilish darajasi jadvali

№	OTT nomi	Boshlang'ich natija (%)	Yakuniy natija (%)	O'sish (%)
1.	SamDChTI	42%	70%	+28%
2.	O'zDTJU	45%	72%	+27%
3.	NamDchTI	40%	78%	+38%

Ushbu leksik mashqlar yangi so'z va terminlarni mustahkamlashda samarali bo'lib, autentik kontekstga asoslanganligi tufayli lug'at boyligini o'rtacha darajada oshirdi. Biroq mustaqil holda yuqori kommunikativ natija bermadi (kommunikativlik past-o'rtacha), shuningdek mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ham past ko'rsatkich kuzatildi.

Pre-test natijalaridan so'ng o'quv jarayonida VICD integrativ modeli asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar joriy etildi. Xususan, autentik video materiallar bosqichli videodidaktik tizim (pre-watching, while-watching, post-watching) asosida qo'llanildi hamda AVCL va VMCI metodik yondashuvlari orqali kommunikativ topshiriqlar tashkil etildi. Shuningdek, video materiallarni tanlash, moslashtirish va integratsiya qilish bosqichlari tizimli ravishda amalga oshirilib, interaktiv muhokama, role-play, summary speaking va reflective writing kabi faoliyatlar o'quv jarayoniga kiritildi. Quydagi 9-jadvalda tajriba yakunida o'tkazilgan yakuniy nazorat natijalari keltirilgan bo'lib, unda autentik video materiallarga asoslangan darslarning tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi. Natijalar tajriba guruhlarida yuqori va yaxshi baholar ulushining sezilarli darajada oshganini, nazorat guruhlarida esa nisbatan barqaror holat saqlanib qolganini

ko'rsatadi. Bu esa tajriba jarayonida qo'llanilgan metodikaning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi (9-jadvalga qarang):

9-jadval

OTT talabalarining o'g'zaki nutq ko'nikmalari bo'yicha yakuniy test natijalari jadvali

OTT	Tajriba guruhlari				Nazorat guruhlari			
	O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan		O'zlashtirgan		O'zlashtirmagan	
	5	4	3	2	5	4	3	2
SamDChTI	18	20	14	10	14	24	18	18
O'zDJTU	20	29	16	19	15	25	16	16
NamDChTI	19	30	15	10	13	27	20	14
Jami: TG-220 NG-220	57 26 %	89 40,4 %	45 20,4%	29 13,1 %	42 19,1 %	76 34,5 %	54 24,5 %	48 21,8 %

Yakuniy test natijalari tajriba guruhlarida nazorat guruhlarinikiga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Xususan, 4 va 5 baholar ulushi keskin oshib (tajriba guruhi 66,3%, nazorat guruhiniki esa 53,6%), autentik video materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi statistik va pedagogik jihatdan tasdiqlandi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhi ishtirokchilarida nazorat guruhi ishtirokchilariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichdagi kabi tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan tanlanmalar sifatida belgilanib yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo'ldi.

Olingan natijalardan ta'lim samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va bilish darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligini orqali ko'rish mumkin. Demak, tajriba guruhidagi o'zlashtirishlar ko'rsatkichi nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan, ya'ni tajriba guruhlarining ko'rsatkichi nazorat guruhlarinikiga nisbatan 14,3% ga oshgan. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan kuzatilgan 14,3% o'sish ko'rsatkichi oliy ta'lim muassalarida chet tilini o'qitishda autentik video materiallardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va xulosalar, ta'lim metodlari, shakl va vositalari samaradorligini tasdiqladi.

Tajriba guruhidagi baholash ko'rsatkichlari va respondentlar sonini mos ravishda X_i , n_i lar va shu kabi nazorat guruhidagi baholash ko'rsatkichlari va tarbiyalanuvchilar sonini mos ravishda esa Y_j , m_j lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlar hosil qilinadi. Shuningdek, yuqori ko'rsatkichni 3 ball bilan, o'rta ko'rsatkichni esa 2 ball bilan va past ko'rsatkichni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba-sinov ishlaridan nazorat guruhidagi respondentlar soni $n=220$, tajriba guruhidagi respondentlar soni $m=220$ bo'lib, biz bu sonlarni X_i va Y_j variantlarga mos statistik tanlanmalar hajmlari deb qaraymiz. Demak, 3.2-jadvaldan quyidagi ikki variatsion qatorlarni tuzib olamiz va $n=n_1+n_2+n_3$ ba $m=m_1+m_2+m_3$:

Tajriba guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(1) \begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ n_i & 94 & 115 & 71 \end{cases} \quad n = \sum_{j=1}^3 n_j = 220$$

Tajriba guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(2) \begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ m_j & 59 & 90 & 71 \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^3 m_j = 220$$

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan n_i va m_j takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari

$$p_i = \frac{n_i}{n} \quad \text{ba} \quad q_j = \frac{m_j}{m} \quad \text{asosida hisoblaymiz.}$$

$$(3) \begin{cases} X_i & 3 & 2 & 1 \\ p_i & 0,43 & 0,52 & 0,05 \end{cases} \quad \sum_{i=1}^3 p_i = 1$$

$$(4) \begin{cases} Y_j & 3 & 2 & 1 \\ q_j & 0,27 & 0,41 & 0,32 \end{cases} \quad \sum_{j=1}^3 q_j = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^3 p_i X_i = 0,43 \cdot 3 + 0,52 \cdot 2 + 1 \cdot 0,05 = 1,29 + 1,04 + 0,05 = 2,38$$

$$\text{Foizda } \bar{X}\% = \frac{2,38}{3} \cdot 100\% = 79,3\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{j=1}^3 q_j Y_j = 0,27 \cdot 3 + 0,41 \cdot 2 + 0,32 \cdot 1 = 0,81 + 0,82 + 0,32 = 1,95$$

$$\text{Foizda } \bar{Y}\% = \frac{1,95}{3} \cdot 100\% = 65$$

Demak, tajriba – sinov guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishdan $(79,3 - 65,0) \% = 14,3 \%$ ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida $\frac{79,3\%}{65,0\%} = 1,22$ barobar ortiqqligini anglatadi.

Demak, tajriba-sinov ishlari so'nggida respondentning bilim ko'rsatkichlari o'rta hisobda 14,3 % ga oshgan.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlarining qo'llanilishi tajriba-

sinov ishinining samaril bo'lishini ta'minladi, tavsiya etilgan "Video-based Integrated Competence Development (VICD)" nazariy-metodologik modeli asosida talabalarning tinglab tushunish, og'zaki diskurs, pragmatik kompetensiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish samaradorligiga erishildi. Autentik video materiallardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida taklif etilgan "Authentic Video-Based Communicative Learning (AVCL)" metodik tizimi talabalarda real nutqiy vaziyatlarni modellashtirish va samarali kommunikativ kompetensiyalari shakllantirdi. Video materiallar asosida pre-watching, while-watching, post-watching bosqichlarini qamrab oluvchi mashq va topshiriqlarning takomillashtirilgan "Bosqichli videodidaktik (staged video-didactics)" metodik tizimi talabalarning og'zaki nutq, tanqidiy fikrlash va interaktiv muloqot faolligini oshirdi. Autentik video materiallardan foydalanishni optimallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan "Video-mediated Communicative Interaction (VMCI)" metodik yondashuvi talabalarning pragmatik tafakkuri, kommunikativ strategiyalari, madaniyatlararo nutqiy moslashuv kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi oshirdi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida autentik videolardan foydalanish talabalarning tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda sezilarli natijalar berdi. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhlariga nisbatan 14,3% yaxshiroq natijalarga erishdi. Tajriba natijalari autentik videolar til o'rganishni yanada maroqli va samarali qilishini tasdiqladi.

Taklif va tavsiyalar

O'tkazilgan tajriba-sinov ishimizdan olingan xulosa va natijalarga ko'ra bir nechta umumiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, autentik video materiallarni tanlashda talabalarning til darajasi, kommunikativ ehtiyojlari, yosh va kasbiy qiziqishlari, shuningdek, o'quv fanining maqsad va vazifalarini hisobga olish zarur. Video materiallardan foydalanish uch bosqichli metodik model asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lib, tayyorlov bosqichida mavzuga oid fon bilimlarini faollashtirish va asosiy leksik birliklarni o'rgatish, tomosha jarayonida tinglab tushunish, asosiy g'oya va muhim detallarga e'tibor qaratishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy bosqichda esa muhokama, tahlil, bahs-munozara va ijodiy nutqiy faoliyatni rivojlantiruvchi vazifalarni qo'llash tavsiya etiladi. YouTube platformasi, badiiy va hujjatli filmlar, intervyular hamda ommaviy axborot vositalariga mansub video materiallar dars jarayonida samarali autentik manbalar sifatida qo'llanishi mumkin. Bunda video materiallarning lingvistik murakkabligi, madaniy mosligi, mavzuning dolzarbligi va texnik sifati alohida e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarida zamonaviy audio-vizual texnik vositalar bilan ta'minlash hamda autentik video materiallardan foydalanishga oid metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur. Autentik video materiallar asosida talabalarning nutqiy kompetensiyasini baholash jarayonini takomillashtirish maqsadida maxsus baholash mezonlari va indikatorlariga asoslangan diagnostik tizimni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tizim tinglab tushunish, leksik boylik, nutq ravonligi va pragmatik kompetensiyaning rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi hamda ta'lim jarayonida obyektiv baholashni ta'minlaydi. Shuningdek, autentik video

materiallardan foydalanishda fanlararo integratsiyani kuchaytirish, xususan, ingliz tilini kasbiy fanlar bilan uyg'unlashtirgan holda autentik videolardan foydalanish talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2024). *Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston*. Toshkent: O'zbekiston.
2. Ablakulova, O. (2024). Authentic video materials: Advantages and limitations. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 54.
3. Almurashi, W. A. (2016). The effective use of YouTube videos for teaching English language in classrooms as supplementary material. *International Journal of English Language and Linguistics Research*, 4(3), 32–47.
4. Atadjanova, M. (2021). *The effects of using authentic video materials in teaching foreign languages*. Tashkent: Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
5. Bajrami, L., & Ismaili, M. (2016). The role of video materials in EFL classrooms. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 232, 502–506. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.068>.
6. Berk, R. A. (2012). Multimedia teaching with video clips: TV, movies, YouTube, and mtvU in the college classroom. *International Journal of Technology in Teaching and Learning*, 5(1), 1–21.
7. Gjinali, A., & Piri, S. (2023). Usage of video and multimedia to improve listening skills: The perception of foreign language students. *Journal of Educational and Social Research*, 13(6), 160–170. <https://doi.org/10.36941/jesr-2023-0155>.
8. Guariento, W., & Morley, J. (2001). Text and task authenticity in the EFL classroom. *ELT Journal*, 55(4), 347–353.
9. Gülseren, Ö. Z., & Araz, S. (2024). Impact of using authentic videos on foreign language vocabulary learning. *RumeliDE Dil ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi*, 14, 1179–1198. <https://doi.org/10.29000/rumelide.1455170>.
10. Herron, C., & Hanley, J. (1992). Using video to introduce children to a foreign culture. *Foreign Language Annals*, 25, 419–426.
11. Herron, C., Morris, D., Secules, T., & Curtis, L. (1995). A comparison study of the effects of video-based versus text-based instruction in the foreign language classroom. *The French Review*, 68(5), 775–795.
12. Kabooha, R., & Elyas, T. (2018). The effects of YouTube in multimedia instruction for vocabulary learning: Perceptions of EFL students and teachers. *English Language Teaching*, 11(2), 72–81. <https://doi.org/10.5539/elt.v11n2p72>.
13. Kalachnikova, R. S. (2022). Types of foreign language video materials and the specifics of their influence on teaching English speaking. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 27(2), 432–442. <https://doi.org/10.20310/1810-0201-2022-27-2-432-442>.
14. Kamil, M. L., Mosenthal, P. B., Pearson, P. D., & Barr, R. (2000). The effects of other technologies on literacy and literacy learning. In M. L. Kamil, P. B. Mosenthal, P. D. Pearson, & R. Barr (Eds.), *Handbook of reading research* (Vol. 3, pp. 771–788). Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates.
15. Makarenko, A. A., Nasanova, D. B., & Ablova, M. V. (2023). Use of interactive web-based video services in foreign language education. *International Research Journal*, 6(132), 75–81. <https://doi.org/10.23670/IRJ.2023.132.139>.
16. McNeil, A. (1994). What makes authentic videos different? The case of English language materials for educational television.
17. Oddone, C. (2011). Using videos from YouTube and websites in the CLIL classroom. *Studies About Languages*, 18, 105–110. <https://doi.org/10.5755/j01.sal.0.18.417>.
18. Oura, G. (2010). *Authentic task-based materials: Bringing the real world into the classroom*.

19. Porter, D., & Roberts, J. (1981). Authentic listening activities. *ELT Journal*, 36(1), 37–47.
20. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge: Cambridge University Press.
21. Spivakova, E. M. (2024). Linguodidactic analysis of authentic video materials selected for Russian as a foreign language classes in universities. *Pedagogy. Theory & Practice*, 9(9), 35–42. <https://doi.org/10.30853/ped20240116>.
22. Stempleski, S., & Tomalin, B. (2014). *Video in action: Recipes for using video in language teaching*. London: Prentice Hall International.
23. Swaffar, J., & Vlaten, A. (2013). *Video-based foreign language learning*. Boston: Cengage Learning.
24. Taylor & Francis Online. (2025). *Academic journals database*. Retrieved September 28, 2025, from <https://www.tandfonline.com>.
25. Temirova, S., & Bakieva, G. (2020). Using authentic video for language skills development. *Obshchestvo i Innovatsii*, 1(2), 329–339. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol1-iss2-pp329-339>.
26. Wang, H. C. (2015). The effect of using videos on English language learning. *Studies in Literature and Language*, 11(3), 40–46.
27. Zamkovaya, A. V. (2023). Didactic-methodic and psychological features of the use of video materials in teaching a foreign language. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 28(1), 89–102. <https://doi.org/10.20310/1810-0201-2023-28-1-89-102>.
28. Zhang, Y., Lucas, M., & Pedro, L. (2022). A decade of short videos for foreign language teaching and learning: A review. *Education Sciences*, 12(11), 786. <https://doi.org/10.3390/educsci12110786>.
29. Shoyeva, S. N. (2024). Use of authentic video materials to increase motivation to study in English. *PEDAGOGS*, 51(1), 72–76.
30. Shukurova, N. (2024). The contribution of authentic video resources for developing receptive skills. *The Lingua Spectrum*, 1(1), 113–115.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2024). *The modern era and New Uzbekistan*. Tashkent: Uzbekistan Publishing House.
2. Ablakulova, O. (2024). Authentic video materials: Advantages and limitations. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 54.
3. Almurashi, W. A. (2016). The effective use of YouTube videos for teaching English language in classrooms as supplementary material. *International Journal of English Language and Linguistics Research*, 4(3), 32–47.
4. Atadjanova, M. (2021). *The effects of using authentic video materials in teaching foreign languages*. Tashkent: Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
5. Bajrami, L., & Ismaili, M. (2016). The role of video materials in EFL classrooms. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 232, 502–506. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.068>.
6. Berk, R. A. (2012). Multimedia teaching with video clips: TV, movies, YouTube, and mtvU in the college classroom. *International Journal of Technology in Teaching and Learning*, 5(1), 1–21.
7. Gjinali, A., & Piri, S. (2023). Usage of video and multimedia to improve listening skills: The perception of foreign language students. *Journal of Educational and Social Research*, 13(6), 160–170. <https://doi.org/10.36941/jesr-2023-0155>.
8. Guariento, W., & Morley, J. (2001). Text and task authenticity in the EFL classroom. *ELT Journal*, 55(4), 347–353.
9. Gülseren, Ö. Z., & Araz, S. (2024). Impact of using authentic videos on foreign language vocabulary learning. *RumeliDE Journal of Language and Literature Studies*, Special Issue 14, 1179–1198. <https://doi.org/10.29000/rumelide.1455170>.

10. Herron, C., & Hanley, J. (1992). Using video to introduce children to a foreign culture. *Foreign Language Annals*, 25, 419–426.
11. Herron, C., Morris, D., Secules, T., & Curtis, L. (1995). A comparison study of the effects of video-based versus text-based instruction in the foreign language classroom. *The French Review*, 68(5), 775–795.
12. Kaboocha, R., & Elyas, T. (2018). The effects of YouTube in multimedia instruction for vocabulary learning: Perceptions of EFL students and teachers. *English Language Teaching*, 11(2), 72–81. <https://doi.org/10.5539/elt.v11n2p72>.
13. Kalachnikova, R. S. (2022). Types of foreign language video materials and the specifics of their influence on teaching English speaking. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 27(2), 432–442. <https://doi.org/10.20310/1810-0201-2022-27-2-432-442>.
14. Kamil, M. L., Mosenthal, P. B., Pearson, P. D., & Barr, R. (2000). The effects of other technologies on literacy and literacy learning. In M. L. Kamil, P. B. Mosenthal, P. D. Pearson, & R. Barr (Eds.), *Handbook of reading research* (Vol. 3, pp. 771–788). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
15. Makarenko, A. A., Nasanova, D. B., & Ablova, M. V. (2023). Use of interactive web-based video services in foreign language education. *International Research Journal*, 6(132), 75–81. <https://doi.org/10.23670/IRJ.2023.132.139>.
16. McNeil, A. (1994). *What makes authentic videos different? The case of English language materials for educational television*.
17. Oddone, C. (2011). Using videos from YouTube and websites in the CLIL classroom. *Studies About Languages*, 18, 105–110. <https://doi.org/10.5755/j01.sal.0.18.417>.
18. Oura, G. (2010). *Authentic task-based materials: Bringing the real world into the classroom*.
19. Porter, D., & Roberts, J. (1981). Authentic listening activities. *ELT Journal*, 36(1), 37–47.
20. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge: Cambridge University Press.
21. Shoyeva, S. N. (2024). Use of authentic video materials to increase motivation to study in English. *PEDAGOGS*, 51(1), 72–76.
22. Shukurova, N. (2024). The contribution of authentic video resources for developing receptive skills. *The Lingua Spectrum*, 1(1), 113–115.
23. Spivakova, E. M. (2024). Linguodidactic analysis of authentic video materials selected for Russian as a foreign language classes in universities. *Pedagogy. Theory & Practice*, 9(9), 35–42. <https://doi.org/10.30853/ped20240116>.
24. Stempleski, S., & Tomalin, B. (2014). *Video in action: Recipes for using video in language teaching*. London: Prentice Hall International.
25. Swaffar, J., & Vlatten, A. (2013). *Video-based foreign language learning*. Boston, MA: Cengage Learning.
26. Taylor & Francis Online. (2025). *Academic journals database*. Retrieved September 28, 2025, from <https://www.tandfonline.com>.
27. Temirova, S., & Bakieva, G. (2020). Using authentic video for language skills development. *Society and Innovations*, 1(2), 329–339. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol1-iss2-pp329-339>.
28. Wang, H. C. (2015). The effect of using videos on English language learning. *Studies in Literature and Language*, 11(3), 40–46.
29. Zamkovaya, A. V. (2023). Didactic-methodic and psychological features of the use of video materials in teaching a foreign language. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 28(1), 89–102. <https://doi.org/10.20310/1810-0201-2023-28-1-89-102>.
30. Zhang, Y., Lucas, M., & Pedro, L. (2022). A decade of short videos for foreign language teaching and learning: A review. *Education Sciences*, 12(11), 786. <https://doi.org/10.3390/educsci12110786>.